# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
# BUYRUG'I

## O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019-yil 14-oktabrdagi 188-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunaviy shtatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019-yil 14-oktabrdagi 188-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunaviy shtatlariga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Vazir** **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil "14"-fevral
51-son

*Kelishilgan:*

**Iqtisodiyot va moliya vaziri** **D. Kuchkarov**

2025-yil "14"-fevral

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri** **B. Zaxidov**

2025-yil "14"-fevral

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 14-fevraldagi
51-sonli buyrug‘iga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2019-yil 14-oktabrdagi 188-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining namunaviy shtatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. 1-ilova quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

**Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining
NAMUNAVIY SHTATLARI**

| Lavozimlar Nomi | Guruhlar soniga qarab belgilanadigan shtat birliklari | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2 guruh | 3 guruh | 4 guruh | 5 guruh | 6 guruh | 7 guruh | 8 guruh | 9 Guruh | 10 guruh | 11 guruh | 12 va undan ortiq guruh |
| Direktor | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Direktor o‘rinbosari | | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1,5 | 1,5 |
| Tibbiy hamshira | 0,5 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1,5 | 1,5 | 1,5 | 1,5 | 1,5 |
| Psixolog | | | | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Xo‘jalik mudiri | | 0,5 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Bosh oshpaz** | | | | | | | | | 1 | 1 | 1 |
| Oshpaz** | 1 | 1,5 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| Oshxona ishchisi** | | | | | | 0,5 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 |
| Choyshablarni yuvuvchi mashinist (qo‘lda yuvilganda yoki to‘liq avtomatlashmagan kir yuvish mashinasida yuvilganda)*** | 0,5 | 1 | 1,25 | 1,25 | 1,5 | 1,5 | 2 | 2 | 2,5 | 2,5 | 2,5 |
| Choyshablarni yuvuvchi mashinist (to‘liq avtomatlashgan kir yuvish mashinasida yuvilganda)*** | 0,5 | 0,5 | 0,75 | 0,75 | 1 | 1 | 1,5 | 1,5 | 2 | 2 | 2 |
| Yopiq turdagi basseyn mavjud bo‘lganda suzish bo‘yicha yo‘riqchi | | | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 1 | 1 | 1 | 1 |

| Lavozimlar Nomi | Guruhlar soniga qarab belgilanadigan shtat birliklari | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2 guruh | 3 guruh | 4 guruh | 5 guruh | 6 guruh | 7 guruh | 8 guruh | 9 Guruh | 10 guruh | 11 guruh | 12 va undan ortiq guruh |
| Yopiq turdagi basseyn mavjud bo'lganda bino va inshootlarga kompleks xizmat ko'rsatuvchi va ta'mirlovchi ishchi | | | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 1 | 1 | 1 | 1 |

**Izohlar:**

** Ovqatlantirish autsorsing yoki keytiring usulida tashkil etiladigan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining shtatlar jadvaliga ushbu lavozimlar kiritilmaydi.

*** Bolalar choyshablari va ko'rpa-to'shaklar tegishli shartnomaga muvofiq maxsus kir yuvish korxonalari tomonidan yuvilganda, umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shtatlar jadvaliga ushbu lavozimlar kiritilmaydi.

Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining xarajatlar smetasida mehnat ta'tiliga chiquvchi quyidagi xodimlarning o'rnini bosuvchi bir necha kasbda va lavozimda ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to'lash uchun mablag' rejalashtiriladi: tashkilot direktori, qorovul, farrosh, tibbiy hamshira, tarbiyachi, tarbiyachi yordamchi (jumladan, tungi vaqt uchun), bosh oshpaz, oshpaz, oshxona ishchisi va choyshablarni yuvuvchi mashinist.

Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tegishli lavozimlar kiritish me'yorlari 1-ilovaga muvofiq belgilanadi.

Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachisi va tarbiyachi yordamchisi lavozimlarini kiritish me'yorlari 2-ilovaga muvofiq belgilanadi.";

2. 2- va 3-ilovalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.